

**YANGI AVLOD DARSЛИKLARI: BOSHLANG'ICH SINIF DARSЛИKLARINING
AFZALLIKLARI VA 4 K MODEL HAQIDA TUSHUNCHALAR.**

Kuronboyeva Shaxzoda Valijonovna

*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi 50-
maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan yangi avlod darsliklarining ahamiyati. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darolarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakl va yangi avlod darsliklari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *odiy fikr , qobiliyat , ta'lim, sinf, dars., darslik, hajm, innovatsiya*

**NEW GENERATION TEXTBOOKS: CONCEPTS ABOUT THE ADVANTAGES OF
ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS AND THE 4 K MODEL.**

Kuronbaeva Shakhzoda Valizhonovna

*Department of preschool and school education of Yangikurgan district of Namangan
region primary school teacher No. 50*

Annotation: *the importance of a new generation of textbooks released for elementary students. This article will talk about the modern form of the development of creative abilities of students in elementary school classes and textbooks of a new generation.*

Keywords: *common sense , ability, education, class, lesson., textbook, volume, innovation*

**УЧЕБНИКИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ: ПРЕИМУЩЕСТВА УЧЕБНИКОВ
ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ И ПОНИМАНИЕ МОДЕЛИ 4К.**

Куронбаева Шахзода Валижоновна

*Отдел дошкольного и школьного образования Янгикурганского района
Наманганской области учитель начальных классов школы № 50*

Аннотация: *значение учебников нового поколения, выпущенных для младших школьников. В данной статье речь пойдет о современной форме развития творческих способностей учащихся на уроках начальной школы и учебниках нового поколения.*

Ключевые слова: *здравый смысл , способности , образование, класс, урок.,учебник,объем, инновации.*



Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak. Boshlang'ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o'quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi. Ammo ular borasidagi tanqidiy fikrlar ham yo'q emas. Xo'sh, 2023/2024-o'quv yilida taqdim etilgan darsliklar avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? Bu savolga javob olish maqsadida soha mutaxassisleri va ota-onalarning fikrlari bilan o'rtoqlashdik.

— Bu yil taqdim etilgan boshlang'ich sinf darsliklari o'qituvchilar uchun yangilik bo'ldi. O'quvchilar kitoblar berilgan kun qanchalik quvonishganini so'z bilan ta'riflab berib bo'lmaydi. Haqiqatan ham hozirgi kitoblar avvalgilaridan ancha ustun. Kitobning ko'rinishi va rang-barang suratlari har bir o'quvchini o'ziga qaratoladi. Avvalgi kitoblar ancha qalin va og'ir edi. Ayni o'sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug'dirardi. Yangi darsliklarning choraklarga bo'lingani o'quvchini yil davomida ortiqcha yukni ko'tarib yurishdan xalos qildi.

1—4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 726-qaroriga muvofiq ta'lim muassasalarining matbaa mahsulotlari texnik reglament asosida ishlab chiqariladi. Yangi boshlang'ich sinf darsliklari ana shu texnik reglamentning eng maksimal darajasidan ham yuqori sifatda ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida darslikdan uzoq yil foydalanishga sabab bo'ladi. Ular sifati va chidamlilik darajasi bo'yicha Yevropa poligrafiyasi standartlariga to'liq javob beradi. Darslikning vazni, o'lchami, shriftlari bo'yicha reglament tasdiqlangan va shu talablardan kelib chiqqan holda ishlab

chiqarilgan, — deydi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori Vohid Hamidov.

Yangi darsliklar borasida ota-onalarning fikri qanday? Albatta, fikrlarning rang-barang bo’lishi tabiiy, ammo Shahnoza Abilova bepul berilayotgan yangi darsliklardan quvonayotganini aytib o’tdi. — Darsliklar ikki yildan buyon ijara to’lovizsiz berilayotgandan juda quvonyapman. Ilgari xorij tilidagi darsliklar bo’yicha yetishmovchiliklar bo’lardi. O’qituvchilar darslikka qo’shib, qo’shimcha adabiyotlar ham sotib olishimizni so’rashedi. Bu yil bunday muammo umuman bo’lgani yo’q. Bundan tashqari, kitoblarning rang-barangligi barcha o’quvchilar qatori, 3-sinfda o’qiydigan qizimni ham quvontiryapti. Hatto, 1-sinfda o’qiyotganida ham har kuni og’ir kitoblarni ko’tarib maktabga kelardi. Hozir ba’zan yengil papkasini ko’rib, “Kam o’qiysanmi?” deb hayron bo’laman. Keyin yangi darsliklarning qismlarga bo’lingani va o’quvchiga qo’shimcha yengillik yaratilgani yodimga tushadi. Yangi darsliklarni yaratishda bolalar psixologiyasi ham hisobga olingan. — Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma’lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rangtasvirlarga ham alohida e’tibor qaratilgan. Yangi darsliklarda oltita grafik qahramonlar bor. Ular dars jarayonida o’quvchilar bilan g’oyibona suhbatlashadi. — Aslida matematikada faqat misol va masalalar emas, balki to’g’ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o’quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Kitobda shunday o’yinlar borki, ular o’quvchini jamoaviy bo’lib ishlashga o’rgatadi. Jamoada o’z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi. Avvalgi darsliklarda pul bilan bog’liq mavzular yo’q edi. 3-sinfning matematika darsligiga esa ana shunday mavzu ham kiritilgan. Undagi masalalar hayotiy misollar bilan berilgani esa o’quvchini yanada qiziqtiriyapti. Ular nafaqat pulning son qiymatiga, balki uni qayerda ishlab chiqarilishi va unda nimalar tasvirlanganiga ham e’tibor berishadi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda darsliklar borasidagi tanqidiy postlar ham ko’zga tashlanyapti. Ba’zi ota-onalar boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun tuzilgan matematika darsliklarining o’ta murakkabligi, undagi masalalar ota-onalar uchun ham qiyinchilik tug’dirayotgani haqida yozishmoqda. Xo’sh, bu borada soha mutaxassislarining fikri qanday?

— Matematika darsligidagi masalalar tabaqalashtirish ko’rinishida berilgan, ya’ni ular osonidan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. O’zim ham ko’p yillar davomida maktabda dars berganman. Tabiiyki, o’quvchilarning bilim darajalari turlicha bo’ladi. Oson ko’rinishidagi masalalar ko’p bo’lgani uchun o’zlashtirishi yaxshi bo’lgan iqtidorli o’quvchilar uchun qo’shimcha adabiyotlardan foydalanishimizga to’g’ri kelardi. Yangi chop etilgan matematika darsligida esa o’qituvchi o’quvchisining bilim

darajasiga qarab, misollarni taqsimlab berishi mumkin. Har bir o'quvchi barcha masalalarni yechimini topishi shart emas. Ularni darsdan tashqari, mustaqil bajarsa ham bo'ladi, — deydi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori Vohid Hamidov.

— Matematika faqatgina misol va masalaga asoslangan fan emas. Unda tanqidiy fikrlab, mulohaza yuritib qaror qilinishi kerak bo'lgan jihatlar ham bor. Bu borada eski darsliklar sayoz edi. O'quvchilarimiz ijod yoki Prezident maktablariga tayyorlanayotganda qiynalardi. Ularni imtihonga tayyorlashda qo'shimcha adabiyotlarni izlashga majbur edik. Yangi darsliklar esa matematikaning barcha ustunliklarini o'z ichiga olgan. Faqatgina o'qituvchi o'z ustida ishlab, uni o'quvchiga to'g'ri tushuntira olishi kerak.